

“QONIMIZDA JADIDLAR QONI: MA’RIFAT UYG’ONISHNING ABADIY MEROSI”

Mahamadaliyeva Nafisa

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Boshlang’ich ta’lim” yo’nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda paydo bo’lgan jadidchilik harakatining mohiyati, maqsadlari va ijtimoiy hayotdagi o’rni haqida so’z yuritiladi. Shuningdek, maqolada unchalik mashhur bo’lmagan ammo harakat rivojiga katta hissa qo’shgan shaxslar va ayollar haqida batafsil ma’lumot beriladi. Maqola jadidlar merosining bugungi kun jamiyatida ham dolzarb ekanini ta’kidlaydi va ularning qadriyatlari nechog’lik buyukligini ochib beradi.

Kalit so’zlar: jadidlar, yangi usul maktablari, ma’rifat, matbuot, savodxonlik, milliy uyg’onish.

Abstract

This article talks about the essence, goals and role of the Jadidism movement that appeared in Turkestan at the end of the 19th and the beginning of the 20th century. Also, the article provides detailed information about persons and women who are not so famous, but who made a great contribution to the development of the movement. The article emphasizes that the legacy of the ancients is relevant even in today's society and reveals how great their values are.

Key words: Jadids, new method schools, enlightenment, press, literacy, national awakening.

Jadidchilik-bu XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston hududida shakllangan ma’rifatparvarlik harakati bo’lib, uning asosiy maqsadi jamiyatni zamonaviy ta’lim va madaniyat orqali yangilash edi. “Jadid” arabcha so’z bo’lib, “yangi” ma’nosini anglatadi. Ushbu harakat islohotchilar tomonidan “ yangi usul”dagi maktablar ochish, ma’rifatni targ’ib qilish va milliy uyg’onishni rag’batlantirish uchun boshlangandi.

Jadidchilik harakatining asosiy maqsadlari:

1. Ta’limni isloh qilish:

Yangi usuldagi maktablarni tashkil etish.

Dastlabki diniy maktablar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o’qitishga ahamiyat berish.

2. Milliy uyg’onish g’oyalari:

Turkiston xalqlarining madaniy o'zligini anglash.

Milliy adabiyot, san'at va ilmni rivojlantirish.

3. Ma'rifat va matbuot:

Gazeta-jurnallar chiqazib, zamonaviy dunyoda sodir bo'layotgan yangiliklarni xalqqa yetkazish.

Savodxonlik darajasini oshirish va omma ongini yangilash.

4. Ayollar ta'limi va huquqlari:

Qizlar uchun yangi usuldagi maktablarni tashkil etish. Ayollarning ijtimoiy hayotdagi rolini oshirish.

Quyida, jadidchilik harakatining ko'plab vakillari mahalliy sharoitlarda faoliyat olib borib, katta o'zgarishlarga hissa qo'shgan, ammo ularning nomlari keng miqyosda mashhur bo'lmagan ko'pchilik yoshlar ular haqida ma'lumotga ega bo'lmagan jadidlar haqida ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz va jadidlar to'g'risidagi ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lamiz:

Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev-Toshkentda faoliyat yuritgan jadidlardan biri. U yangi usul maktablari ochilishida yordam bergan va maorifni isloh qilishda qatnashgan. Shuningdek, jamiyatda isloh qilish g'oyalarini faol ilgari surgan.

"Shahrig'oya" – bu asarida Ubeydullaxo'ja ta'limning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan. U o'qish, ilm olish, madaniyatni rivojlantirish orqali ijtimoiy taraqqiyotga erishish mumkinligini ta'kidlagan. Asarda jadidchilik harakatining g'oyalari, xususan, yangicha ta'lim tizimi va zamonaviy metodlarning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Sadriddin Ayniy-Ilk bor "Tojik adabiyoti namunalari" nomli tojik milliy ijodiy saylanmasini tuzadi. Tojik SSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi(1940), O'zbek SSR FAning sharaflari a'zosi (1949), filologiya fanlari doktori (1949). 1951 yildan Tojik SSR FAning birinchi prezidenti. Tojikiston

Davlat mukofotining birinchi laureati (1950) Sadriddin Ayniy o'zining ona tili hisoblanmish tojik tili bilan birga, o'zbek tilini ham yaxshi bilgan va o'zining ayrim asarlarini shu tilda yozgan. U ikki xalq adabiyotiga ham sezilarli hissa qo'shgan.

Uning asosiy mehnatlari: "Odina" (1924 yil nashr etilgan), "Doxunda" (1930 yil nashr etilgan), "Qullar" (1934), "Sudxo'ring o'limi" (1939), "Xotiralar" ("Buxoro") (1949—1954). "Odina" qissasi yangi tojik adabiyotining boshi hisoblanadi.

Fayzulla Xo'jayev- Buxoro amirligi, va Rossiya Imperiyasi – 1938-yil 15-mart, Moskva, SSSR) – atoqli davlat va siyosat arbobi, Buxoro jadidchiligidan faol ishtirokchisi, „Yosh buxoroliklar“ partiyasining rahbarlaridan biri. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Nozirlar Kengashi raisi. Shuningdek, keyinchalik O'zbekiston SSRning rahbarlaridan biri sifatida faoliyat yuritgan.

Is'hoqxon Ibrat-Farg'ona vodiysi viloyat va shaharlarida faoliyat ko'rsatgan usuli jadid maktablaridan „Alifbo“ darsligi sifatida ham qo'llangan. 1914-yilda

To'raqo'rg'onda rus maktabi ochdi va uni „Uchitel“ deb nomladi. Maktabni 1916-yilda general-gubernatorlik ma'muriyati ruxsatisiz ochilganini bahona qilib yopib qo'yishadi. Is'hoqxon Ibrat 1898-yildan boshlab To'raqo'rg'on va Namangan shaharlarida xalq qozisi lavozimida faoliyat yuritdi. Boshlang'ich ma'lumotni mahalliy eski usul maktabida olgan, so'ngra Samarqandga ko'chib o'tadi va Orifjonboy madrasasiga o'qishga kiradi. Keyinchalik rus millatiga mansub gimnaziya faoliyati va o'qitish uslublari bilan yaqindan tanishadi. U yoshligidanoq o'qituvchilik qila boshladi va o'zining yangi metodik maktabini ochishni orzu qilardi. Shakuriy adabiyot, she'riyat va tarixga qiziqardi.

Abduqodir Shakuriy-Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Jadidlarning ma'rifatga asoslangan islohotlari millatning o'zligini anglashiga, zamonaviy ta'lim tizimining shakllanishiga va xalqni mustaqilikka intilishiga katta hissa qo'shdi. Ularning faoliyati bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, milliy taraqqiyot uchun ma'naviy yo'riqnoma sifatida xizmat qilmoqda. Jadidlar boshlagan yo'l nafaqat ma'rifatparvarlik harakati, balki milliy uyg'onishning ramzi sifatida e'tirof etiladi. Ularning g'oyalari va fidoyiliklari jamiyatimizning madaniy-ma'naviy poydevorini mustahkamlashda davom etmoqda.

Abduqodir Shakuriy Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Saidahmad Vasliy, Said Rizo Alizoda, Xoja Muin, Sadridin Ayniy, Siddiqiy Adji, Abdulqayum Kurbiy, To'raqul Zehniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqalar bilan shaxsan tanish bo'lgan. Jadidchilar muntazam ravishda birovning uyiga yig'ilib, birga vaqt o'tkazar, reja va yangiliklarni muhokama qilar, fikr almashgan, asar va she'rlarni o'qib, muhokama qilar edilar. Bir qator jadidchilik gazeta va **jurnallarida maqolalar yozgan.**

Said Rizo Alizoda-Saidrizo Alizoda 1924-yildan „Zarafshon“ nashriyotida mudirlik qilgan. 30-yillarda Samarqand Pedakademiyasida arab va fors tillaridan dars bergan. Mustaqil mutolaa bilan shug'ullanib, rus, fransuz, arab, italyan, yahudiy, kurd, arman, ingliz, urdu tillarini o'rgangan. 17—18 yoshlaridayoq „Nizomnoma“ (1904), „Risalat ulittihodiya“ (1906) kabi risolalari bilan tanilgan. Ayni paytda 1905—1907-yillarda Dimurovlar bosmaxonasida harf teruvchilik qilgan, maqolalar yozgan. Jadid maktablari uchun „Ilmi hisob“ (Samarqand, 1906) darsligini tuzgan. Maqolalari „Bahlul“, „Zambur“, „Korgar“, „Sitamdiyda“, „Mulla Jambul“, „Ranjbar“, „Bog'ishamoliy“ kabi taxalluslar bilan bosilgan. 1913—1915-yillarda Behbudiyning „Oyna“ jurnalida yaqindan hamkorlik qilgan.

Biz yoshlar shuni unutmasligimiz joizki, biz o'zbeklarning qonida jadidlar qoni oqib kelmoqda. Jadidlarimiz bizga meros qilib ketgan ilmlardan foydalanib, kelajagimiz poydevorini qurishimiz va Vatanimizning bayrog'ini yuksaklarga ko'tarishni o'zimizga maqsad qilib olishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik>
2. <https://kun.uz/56764877?q=%2Fuz%2F56764877>
3. <https://oliymahad.uz/36485>
4. <https://www.iiu.uz/index.php/oz/news/3076>
5. Olim Oltibek. Jadidlar. Abdulla Avloniy. -T.:Yoshlar, 2022 y.

